

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIIYA INSTITUTI**

“MOLIYA” kafedrası

“Moliya” fanidan

REFERAT

**Mavzu: Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda EIZlarning
ahamiyati**

**Tayyorladi: M-51 guruhi talabasi
Vahobov A.
Qabul qildi: k.o'q. M.Sharapova**

Toshkent-2017

REJA:

KIRISH

1. Erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy ahamiyati va turlari
2. O`zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalar jalb qilish istiqbollari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

KIRISH

Bugun iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni jalb qilish bo`yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday mamlakat uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda esa erkin iqtisodiy zonalar muhim o`rin tutadi. Jahon tajribasidan ma`lumki, erkin iqtisodiy zonalar innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg`or texnologiyalarni joriy qilish, eksport, shuningdek, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish, yangi ish joylarini barpo etish va shu kabi bir qator muhim masalalarni hal etish imkonini beradi.

Pul-kredit va soliq siyosatida imtiyozlarni joriy qilish, davlatning industrial siyosatiga mos ravishda sarmoya kiritayotgan investorlarga ma`lum bir imtiyozlar “paketi”ni taqdim etish va ular uchun zarur bo`lgan infratuzilmaviy sharoit hamda qulayliklarni yaratish ana shunday vositalar sirasiga kiradi. Ularning barchasi “Erkin iqtisodiy zonalar” (EIZ) deb ataluvchi ma`muriy-iqtisodiy tuzilmalarda mujassamdir.

Shu o`rinda birinchi Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirish o`rinlidir: “Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarini rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to`liq respublikamiz mablag`lari hisobidan barpo etilmoqda”¹.

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O`zbekiston”, 2015. 71 b.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini yanada ko`proq jalb qilishga bugun respublikamiz taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Vazirlar Mahkamasi majlisida "2015 yilda amalga oshirgan keng ko`lamli, uzoqni ko`zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferentsiyalar yo`lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish iqtisodiyotimizning barqaror o`sish sur`atlari va uning makroiqtisodiy mutanosibligi bo`yicha o`z ijobiy ta`sirini berdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o`zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e`tiborga loyiq.

2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o`zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko`p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig`i xorijiy investitsiyalar bo`lib, shuning 73 foizi to`g`ridan-to`g`ri chet el investitsiyalaridir"², deya alohida ta`kidlab o`tgandi. Albatta, buning negizini O`zbekistonda chet ellik investorlar uchun qulay muhit shakllantirishga, qonunchilik kafolatlari va imtiyozlarning yaxlit tizimini yaratishga, shuningdek, ular ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag`batlantirishga qaratilgan kompleks huquqiy, institutsiyaviy hamda tashkiliy tadbirlarning amalga oshirilganligi tashkil qiladi.

² Karimov I.A.. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir, 2016 yil yanvar (<http://www.uzreport.uz>)

1. Erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy ahamiyati va turlari

Erkin iqtisodiy zonalar mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan zonadir.

Odatda, har bir mamlakatda milliy iqtisodiyotni tashkil etish va rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalar muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab erkin (maxsus) iqtisodiy zonalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Jahon xo'jalik aloqalari uchun erkin iqtisodiy zonalar xalqaro tovar ayitrboshlashni faollashtirish hisobiga iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, sarmoyalarni jalb etish, iqtisodiy jarayonlarni chuqurlashtirish omili sifatida muhim rol o'ynamoqda. Mahsulotlar bojxona hududidan tashqarida deb ko'riladigan erkin zonani o'ziga xos tashqi savdo aklavi sifatida ta'riflagan 1973 yilgi Kioto konventsiyasi imzolanganidan beri erkin iqtisodiy zonalar ko'plab mamlakatlarga tarqaldi. Masalan, o'tgan asrning 90-yillarida turli ko'rinishdagi minglab erkin iqtisodiy zonalar faoliyat ko'rsata boshladi. Mutaxassislarning fikricha, 2000 yilga kelib ana shu EIZlar orqali jahon savdo aylanmasining 30 foizi aylana borshladi. o'z faoliyatining barqarorligi uchun imtiyozli sharoitlarni qidirib yurgan xalqaro korporatsiyalar EIZni yuqori daromad topishi mumkin bo'lgan qulay hududlar sifatida ko'rishadi.


Amaliyotda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning bir qancha turlari mavjud. Ularni tashkil etish har bir mamlaktda olib borilayotgan iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy siyosat bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki, bir davlatning geografik joylashuvi boshqa davlatning geografik joylashuvidan tubdan farq qiladi. Shunga muvofiq, har bir davlatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish turlicha bo'ladi. Erkin iqtisodiy zonalar mamlakatning boshqa qismlarida ishlatilmaydigan imtiyoz va rag'batlarning o'ziga xos tizimi qo'laniladigan milliy iqtisodiy zonaning bir qismidir.

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilishning muhim sababalaridan biri shundaki, ko'pincha davlat iqtisodiyotini kapital oqimi uchun to'liq ochishni, o'ziga xos investitsiya oqimini hamma joyda ishlatishni istamaydi. SHuning uchun ham maxsus zona sifatida qisman ochilikni ishlatadi. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish va ular faoliyatining jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jahon bozori bilan integratsiyani chuqurlashtirish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirish maqsadida tuzilgan zonalar (erkin savdo zonasi, eksport ishlab chiqarilishi, bojxona va boshqa zonalar) bilan birga ma'lum bir faoliyat shakli va ishlab chiqarish sohasini rag'batlantirish uchun tashkil qilingan alohida rejimli maxsus zonalar ham mavjud bo'ladi.

Masalan, qoloq tumanlarni rivojlantirishni, qoloq tumanlarni sanoatlashtirishni rag'batlantiruvchi maxsus zona. Shuning uchun erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilishning sabablari va maqsadlari har bir holatda o'zgacha bo'lib, bir-biriga o'xshamasligi mumkin. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya kabi sanoati rivojlangan davlatlarda erkin iqtisodiy zonalar depressiyaga uchragan tumanlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan mintaqaviy siyosatni amalga oshirish uchun tashkil qilingan. Bu maqsadda tadbirkorlarga mamlakatning boshqa tumanlaridagiga nisbatan ko'proq faoliyat erkinligi va sezilarli moliyaviy imtiyozlar beriladi. Bu dasturlar xorijiy jalb qilishga qaratilmagan. Xuddi shu maqsadda rivojlanayotgan davlatlarda ham erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilinadi. Bu esa qoloq tumanlarni dinamik ravishda rivojlanayotgan tumanlarga aylantirish imkoniyatini beradi. Ammo sanoat rivojlangan davlatlardan farqli ravishda bu mamlakatlarda ko'proq xorijiy kapitalni jalb qilishga harakat qilinadi.

Ayrim hollarda u yoki bu erkin iqtisodiy zonani aniq klassifikatsiyalash qiyin. Chunki ular ko'plab zonalarning xususiyatlariga ega. Rossiyalik mutaxassislar tomonidan xo'jalik ixtisoslashuvi - zonada faoliyat ko'rsatayotgan asosiy ko'pchilik firmalarning ixtisoslashuvi bo'yicha klassifikatsiya ishlab

chiqilgan(1-rasm). Erkin iqtisodiy zonalar klassifikatsiyasidagi markaziy o`rin sanoat qayta ishlash zonalariga berilgan.



1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalar klassifikatsiyasi³

Erkin iqtisodiy zonalarining eng oddiy ko`rinishlaridan biri erkin bojxona zonalar hisoblanadi (EBZ). Bu zonalar erkin savdo zonalar kabi birinchi avlod zonalariga kiradi. Ular 17-18 asrlardan buyon mavjud. Bu zonalarda tranzit yoki kassignatsion omborlar, eksportga mo`ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash bo`ladi. Bunday zonalarni ko`pincha bond omborlari yoki erkin bojxona zonalar deb ataladi. Erkin bojxona zonalar tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi. Ular ko`plab mamlakatlarda mavjud.

Erkin savdo zonalar (ESZ) ham dunyoda keng tarqalgan. Uning maqsadi savdoni rag`batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo xarajatlarini kamaytirishdan iborat. ESZlari umumiy va maxsus (subzona) zonalarga ajratiladi.

³ Hamroev H.R. Zonal siyosat: metodologiya xorijiy tajriba va qo`llash yo`nalishlari. -T.: Fan, 2008.

Ularda kiritilgan tovarlarni omborlarga joylashtirish va qayta ishlash amalaga oshiriladi subzonalar faoliyati umumiy zonadan tashqariga chiquvchi alohida yirik kompaniyalar tashkil qilinadi. Subzonalarda eksport uchun yoki import o`rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Erkin savdo zonalariga qatoriga imtiyozli holatga ega bo`lgan ananaviy erkin portlarni kiritish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish zonalarini ikkinchi avlod zonalarini hisoblanadi. Ular erkin iqtisodiy savdo zonalariga faqat tovar emas, kapital ham olib kirilishi va ularda faqat savdo bilan emas, ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug`ullanishi oqibatida erkin savdo zonalarining evolyutsiyasi natijasida vujudga keldi.

Sanoat ishlab chiqarish zonalarini maxsus boj rejimiga ega bo`lgan zonalarida tashkil qilinadi. Bu zonalar sezilarli soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo`ladilar. Eksport ishlab chiqarish zonalarini ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan. Bunday zonalaridan "yangi industrial davlatlarda" eng katta samara olingan. Eksport ishlab chiqarish zonalarini tashkil qilish mantiqi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan belgilangan edi. 60 yillarning o`rtalarida bu Erda sanoat eksportini rag`batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zaruriyati tugatilagn edi.

Texnika kiritish zonalarini uchinchi avlod zonalarini hisoblanadi (70-80-yillar). Ular stixiyali tarzda hosil bo`ladi yoki maxsus ravishda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil qilinadi. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilik, loyiha, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi.

Turli moliya-iqtisodiy, sug`urta va boshqa xizmatlar ko`rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratiladigan zonalar servis zonalar deb ataladi. Servis zonalar qatoriga offshor zonalar (OZ) va soliq gavanlari kiradi (SG) kiradi. OZ va SG tadbirkorlarni qulay valyuta-moliya, fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi, davlat boshqaruvining kamligi bilan o`ziga jalb qiladi. Offshor zonada ro`yxatga olingan va soliq va boshqa imtiyozlar olishga nomzod bo`lgan kompaniyalarga

qo`yiladigan aosiy talab – offshor markaz joylashga davlatning rezidenti bo`lmaslik va bu davlat zonaida daromad olmaslikdir. Soliq gavanlarining offshor zonalardan farqi shundaki, u Erda barcha firmalar (xori firmalari ham, maxalliy firmalar ham) faoliyatning barcha turlari yoki ba`zi turlari bilan shug`ullanishad imtiyozlarga ega bo`ladilar. Offshor zonaalarni tashkil qiluvchi davlatlar qo`shimcha xorijiy kapital jalb qilish, offshor zonada ro`yxatga olingan korxonadan foyda olish, maxalliy mutaxassislar uchun qo`shimcha ish joylarini tashkil qilinishi orqali foyda ko`radilar.

Offshor kompaniyalar faoliyat ko`rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, SHveystariya va boshqalar kiradi. Oxirgi o`n yillikda bularga Malta, Mavrikiya, g`arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa davlatlar qo`shildi.

Erkin iqtisodiy zonalar ularni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida quriladi. Ularning faoliyat ko`rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog`lanadi. Erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiyotning tashqi dunyoga ochiqligi katta darajada bo`ladi. Bojxona, soliq va investitsion rejimi esa tashqi va ichki investitsiyalar uchun qulaydir. Amalda erkin iqtisodiy zona jahon kapital xo`jaligi miqyosida migratsiya qilib yurgan kapital uchun qopqon hisoblanadi. Mamlakat ichidagi iqtisodiy jaryonlarni faollashtirishda foydalanish uchun xorijiy kapitalni jalb qilishdan tashqari sanoat erkin iqtisodiy zonalarning yana uchta vazifasi ko`rsatiladi:

- sanoat eksportini rag`batlantirish va shu orqali valyuta mablag`larini jalb qilish;
- bandlik darajasini oshirish;
- zonalarni xo`jalik yuritishning yangi usullarini sinash maydoniga, milliy xo`jalik rivojlanishining qutbiga aylantirish.

Turli ko`rinishdagi erkin iqtisodiy zonalarni o`xshash tomonlari shundaki, ularda o`zida tadbirkorlar uchun bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlari va umumiy rejimga nisbatan ustunliklar bo`lgan qulay investitsion iqlim mavjudligidadir. Turli zonalarda imtiyoz va rag`batlantirishlar ba`zi jihatlari bilan farq qiladi. Imtiyozlar to`rtta asosiy guruxga ajratiladi(1-jadval).

1-jadval

EIZ larda imtiyozlarning guruhlanishi⁴

Tashqi savdo imtiyozlari	Bu alohida bojxona-tarif rejimini kiritish(eksport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish) va tashqi savdo operatsiyalarini amalag oshirish tartibini soddalashtirish;
Soliq imtiyozlari	Bunda faoliyatining ma`lum ko`rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag`batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va x.k), uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish xaqiga xarajat, tarnsport), soliq stavkalarining darajasi, soliqqa tortilishdan doimiy va vaqtinchalik ozod qilish masalalari;
Moliyaviy imtiyozlar	Ular o`z ichiga turli shakldagi subsidilarni oladi. Ular kommunal xizmatlarning arzonligi, Er maydonlari va ishlab chiqarish binolari ijara xaqini kamaytirish, imtiyozli kreditlar kiradi
Ma`muriy imtiyozlar. ma`muriyat tomonidan maxsus zonalar ajratilishi	Korxonalarni ro`yxatdan o`tkazish va xorijiy fuqarolarni kirib-chiqishini Engillashtiradi, shuningdek turli xizmatlar ko`rsatish maqsadida

⁴ Hamroev H.R. Zonal siyosat: metodologiya xorijiy tajriba va qo`llash yo`nalishlari. -T.: Fan, 2008.

2. O`zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati

Mamlakatimiz iqtisodiy yutuqlarga erishayotgan bir sharoitda, milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni jalb etish bo`yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tarzi va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 2008 yil 2 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to`g`risida"gi farmoni qabul qilindi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to`g`risida"gi PF-4436-son Farmoni mamlakatimizda yana bir erkin iqtisodiy zonani yaratishga, yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun iqtisodiyotimizga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo`yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga imkon yaratdi.

Yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo`yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida, shuningdek O`zbekistonda o`zbek-xitoy sanoat parkini barpo etish loyihasini amalga oshirish bo`yicha o`zaro anglashuv to`g`risidagi memorandumga muvofiq 2013 yil 18 martda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jizzax" maxsus industrial zonasini barpo etish to`g`risida" Farmoni qabul qilindi.

Havoii viloyatiga jalb qilingan investitsiyalar 2007 yilda 2,4 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo`lsa, 2008 yilda 1,0 mln AQSH dollarini tashkil etgan va 2009 yilga kelib bu ko`rsatkich yana ortgan va 4,8 mln AQSH dollariga yetkazilgan. Bu ko`rsatkichlarni foizlarda hisoblaydigan bo`lsak,

2007 yilda iqtisodiyatga jami 1,0 mln AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilingan bo`lsa, shundan 1,2 foizi Navoiy viloyatiga to`g`ri keladi. 2008 yilda bu ko`rsatkich 2,6 foizni tashkil etadi. 2009 yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida nafaqat O`zbekistonda, balki butun dunyoda ham xorijiy investitsiyalar jalb qilish jarayoni ancha sustlashgan. Shu bois O`zbekiston Respublikasi hududlarida 343 ta loyiha doirasida 477,6 mln. doll. xorijiy investitsiyalar o`zlashtirilishi ko`zda tutilib, bunda Navoiy viloyatining salmog`i 1 foizni tashkil etadi.

“Navoiy” ЭИЗda 2010 yilda umumiy qiymati 31 mln dollarlik to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish orqali 11ta investitsion loyixalar amalga oshirildi. Faoliyat ko`lami tobora kengayib borayotgan ushbu hududda o`tgan vaqt mobaynida 12 ta yangi korxonalar qurilib, foydalanishga topshirildi. 2012 yilda ular tomonidan 80 milliard so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 2015 yilga qadar umumiy qiymati 270 million AQSh dollarilik yana 24 ta loyihani hayotga tatbiq etish rejalashtirilgan edi. 2015 yilning o`zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 180 milliard so`mdan ortiqni, eksport hajmi esa 5 million AQSH dollaridan ziyodni tashkil etdi. 2014 yil bilan taqqoslaganda, o`tgan yili eksport hajmi 3 baravar ortdi.

“Angren” ЭИЗda 2012-yil apreldan buyon umumiy qiymati 166 million dollar bo`lgan 9 ta loyiha amalga oshirilganini va 1309 ta ish o`rni yaratilgan 2014-yilda Angrenda yangi zamonaviy shakar zavodi qurib bitkazildi. Singapur va Avstriya kompaniyalari bu korxonalar uchun 108 million dollar sarflashdi. Bundan tashqari, bu zonada “O`zbekenergo” DAK koreyalik hamkorlari bilan diodli yorug`lik lampalarini ishlab chiqarishni yo`lga qo`ydi. “Angren” maxsus industrial zonasi zonada qisqa muddatda umumiy qiymati qariyb 44 million dollar bo`lgan 5

loyiha asosida energiyani tejaydigan diodli yorug`lik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, ko`mir briketlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish o`zlashtirildi.

Hozirgi kunda “Angren” maxsus industrial zonasida jami 11 korxonada faoliyat ko`rsatayapti. Ularda shakar va mis quvurlaridan tashqari, ko`chalar hamda binolar uchun tejamkor yoritqichlar, ko`mir briketlar, zamonaviy qurilish materiallari kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Korxonalarda ish bilan band bo`lganlar soni esa bir yarim ming kishiga Etib qoldi. Umuman olganda, “Angren” EIZ ma`muriy kengashi tomonidan 23 ta loyiha ma`qullangan bo`lib, ularning qiymati qariyb 458 million AQSH dollarini tashkil qiladi.

Quyidagi jadvalda Navoiy va Angren EIZlardada 2016-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar to`g`risida ma`lumot keltirilgan.

2-jadval

Navoiy va Angren EIZlarida 2016-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar⁵

Loyiha nomi	Loyiha umumiy qiymati (ming dollar)	Yillik ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi (birlik, ming dona)	Yillik ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi (birlik, ming dona)
Navoiy EIZda: Mayda hajmli maishiy texnika: fenlar, dazmollar, elektrgo`shtqiy malagichlar, sokovijimalka, elektrchoyniklar va boshq ishlab chiqarish	5500	500	25
Angren EIZda: Har xil turdagi ventilyatorlarni ishlab chiqarish	3500	100	25

⁵ <http://www.uzinfoinvest.uz/rus/proekti/>

2013-2015 yillarda Jizzax” EIZda 29,5 million AQSh dollari miqdoridagi kapital qo`yilmalarni o`zlashtirish, "Jizzax" EIZning Sirdaryo filialida y umumiy qiymati 31,8 million AQSh dollari bo`lgan 3 ta loyiha joylashtirilishi mo`ljallangan edi. 2014 yilda vohada xorijiy investorlar ishtirokida 12 ta sanoat korxonasi tashkil etildi. Yaqinda bu yerda loyiha qiymati 12 million AQSh dollari qiymatidagi mablag` evaziga 3 ta yirik sanoat korxonalari ish boshladi. Ma`lumot o`rnida yana shuni aytish kerakki, “Jizzax” EIZda bugungi kunga qadar 51 million dollarlik (uning yarmidan ko`pi to`g`ridan-to`g`ri xorijiy sarmoyalar) 13 ta loyiha amalga oshirildi. Joriy yilda ularning sonini 11 taga ko`paytirish va buning uchun 156 million dollarlik investitsiya jalb etish mo`ljallangan.

3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalar jalb qilish istiqbollari

Ayni paytda mamlakatimizda ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlar va korxonalarining yetarli darajada taraqqiy etmaganligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda iqtisodiy o`shishni ta`minlash borasidagi ba`zi bir muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu masala xususida mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoevning quyidagi fikrlarni keltirish joiz: “Hayotning o`zi va o`tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o`zgartirishni ta`minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda”⁶.

2016 yil 26 oktyabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmoniga muvofiq mamlakatimizda

⁶ Mirziyoyev Sh., O`zbekistonni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasi, 17.01.2017 yil. uza.uz

erkin iqtisodiy zonalarni izchil rivojlantirish maqsadida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi, “Angren” va “Jizzax” maxsus industrial zonalari nomini birxillashtirish maqsadida ularni “Navoiy”, “Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalar deb atash belgilab qo`yildi.

Prezidentimiz mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida o`tgan 8 yil mobaynida atigi 24 ta loyiha amalga oshirilib, ularda to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar ulushi juda pastligi va atigi 900 nafar odam ishga joylashtirilganini, printsiptial jihatdan yangi asoslarda “Urgut”, “o`ijduvon”, “Qo`qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalari tashkil qilinishi, o`tgan yillardagi xatolarni yana takrorlashga endi yo`l qo`yib bo`lmasligini alohida qayd etdi.

2017 yil 12 yanvar kuni tashqi bozorlarda talab katta bo`lgan, yuqori qo`shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta`minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo`jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo`yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg`ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o`rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Urgut”, “G`ijduvon”, “Qo`qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to`g`risida”gi farmoni imzoladi. Ularning faoliyat ko`rsatish muddati, keyinchalik uni uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi.

Mazkur farmonga muvofiq quyidagilar ularning asosiy vazifalari va faoliyati yo`nalishlari etib belgilandi:

- tashqi bozorlarda talab katta bo`lgan va importning o`rnini bosuvchi, yuqori qo`shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo`yicha

zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarini jalb etish;

- Samarqand, Buxoro, Farg`ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta`minlash;

- meva-sabzavot va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to`qimachilik, gilam to`qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo`nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

- mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o`rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalarini o`rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo`yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning qarorlari xalqaro darajada e`tirof etilishini ta`minlash chora-tadbirlarini ko`rish.

Ta`kidlash joizki, mazkur yangi erkin iqtisodiy zonalarda meva-sabzavot va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to`qimachilik, gilam to`qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa yo`nalishlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar hududlarda ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatlaridan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o`rinlarini ochish, pirovardida aholining barqaror daromadi hamda turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, EIZda ishlar muvaffaqiyatli bo`lishi uchun, eng avvalo, zona maydonida erkin tadbirkorlikka sharoit bo`lishi kerak. Erkin tadbirkorlik ruhi ustunlik qilishi zarur. Xorijiy investorlar uchun biznes olamida umumiy «shaffof» bo`lishi va iqtisodiy sub`ektlarning harakatini oldindan aytib berish imkoni bo`lishi juda muhimdir.

O`zbekiston uchun ko`proq real va iqtisodiy oqlangan yo`l bu kompakt erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdir. Bu Erda nisbatan oz muddatda va qulay xarajatlar bilan kerakli infratuzilmalarni ta'minlash va imtiyozli bojxona tuzimini kiritish mumkin. Erkin iqtisodiy zonalar uchun joy tanlashda avvalo quyidagi faktorlarni hisoblay olish kerak, ya'ni xalqaro biznes faolliklarga (imkon qadar) va savdo sotiq bozorlariga chiqish qulayligi infratuzilmaning asosiy asosiy ob'ektlari mavjudligi, birinchi navbatda transport, tashkilotining ishonchli moddiy texnik ta'minoti va hokazo. "Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq mamlakatimizda erkin savdo, erkin eksport — ishlab chiqarish va texnologik zonalar tashkil etish ko`zda tutilgan. Bu zonalarni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olish va ularning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish nazarda tutilgan.

O`zbekistonning 160 ta dunyoning turli mamlakatlari bilan eksport qilayotganligi EIH larning tashkil etish zaruriyati tobora muhim ekanligidan darak berib turibdi:

- ishchi kuchining yangi ishlab chiqarish uslubiga o`qitilishi va malaka olishi;
- mahalliy tovarlar yoki EIH hududida ishlab chiqarilgan tovarlarni realizatsiya qilish hajmini o`shishi uchun real imkoniyatlar yaratilishi;
- ombordan sotish va yuklab sotish sohalarida savdo aylanmasining o`shishi;
- bank, sug`urta va boshqa faoliyat turlari o`shishining rag`batlantirilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. -40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonuni. 1996 yil 25 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Navoiy EIZ faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2009 yil 27 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoni. 2012 yil 13 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoni. 2013 yil 18 mart.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni, 2016 yil 26 oktyabr
7. Karimov I.A.. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent, 2014. – 64 b.
8. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2015. 71 b.
9. Karimov I.A.. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. 2016 yil yanvar (<http://www.uzreport.uz>)
10. Mirziyoyev Sh., O'zbekistonni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy

dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasi, 17.01.2017 yil. uza.uz

11. Vahbov A.V. va boshqalar. "Xorijiy investitsiyalar". T.: "Moliya". 2010 yil.

12. Mahmudov N.M, Madjidov SH.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O`quv qo`llanma. - T.: TDIU, 2010.

13. Hamroev H.R. Zonal siyosat: metodologiya xorijiy tajriba va qo`llash yo`nalishlari. -T.: Fan, 2008.

14. Raimjonova M. O`zbekiston erkin iqtisodiy zonalariga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya aftoreferati. - T. Bank moliya akademiyasi. 2012 yil

15. Internet saytlari:

<http://www.gov.uz>-O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

<http://www.lex.uz> (O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi)

<http://www.stat.uz> (O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi rasmiy sayti)

<http://www.mf.uz> (O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Rasmiy sayti)

<http://www.jizzax.uz>. Jizzax maxsus industrial zonasi

<http://www.navoi.uz>